

Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi asosiy ko'rsatkichlari


2025-yil yanvar-may oylari uchun

- I. Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Namangan viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

2025-yilning 1-iyun holatiga ko'ra viloyatda 4132 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulushi 730 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 17,7 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, 701 tasi (17,0 %) kiyim ishlab chiqarishga, 632 mingtasi (15,3 %) Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 414 tasi (10,0 %) to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-iyun holatiga ko'ra



II. Namangan viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 13 485,6 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 109,2 ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Namangan viloyati	13 485,6	109,2
Namangan shahar	4 027,5	103,6
tumanlar:		
Mingbuloq tumani	397,3	102,1
Kosonsoy tumani	740,7	112,3
Namangan tumani	669,0	106,7
Norin tumani	145,1	108,2
Pop tumani	319,5	108,8
To'raqo'rg'on tumani	2538,3	104,6
Uychi tumani	731,1	108,4
Uchqo'rg'on tumani	423,4	108,6
Chortoq tumani	417,4	120,8
Chust tumani	1322,0	112,7
Yangiqo'rg'on tumani	204,9	112,4

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 2025- yil yanvar-may oylari da 4297,1 ming so'm (2024- yil yanvar-may oylarida 3 160,3 ming so'm), o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,9 %ni ko'rsatmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-may ylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-may oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 11 012,4 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (81,7 %)ni tashkil etgan holda Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashtirishda 2 253,6 mlrd so'm (16,7 %), Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda 174,0 mlrd so'm (1,3 %) hamda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 45,5 mlrd so'm (0,3 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025-yilning yanvar-may oylarida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-may oylarida viloyatda 4 601,3 tonna paxta chigiti (2024-yilning yanvar-may oyiga nisbatan 43,0 % ga kamaygan), 328,7 tonna paxta tiviti(lint) (52,1 % ga kamaygan), 20 021,0 litr Ishlov berilgan suyuq sut mahsulotlari (12,6 % ga ko'paygan), 12 646,5 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (22,6 % ga kamaygan) hamda 3 754,5 tonna tozalanmagan paxta yog'i (49,1 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-may*	2024-yil yanvar-may*	2025-yil yanvar-may
Paxta chigiti, tonna	16 294,8	16906,9	4 601,3
Paxta tiviti (lint), tonna	678,6	686,4	328,7
Ishlov berilgan suyuq sut, tonna	-	17 776,0	20 021,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	23 652,1	13 098,5	12 646,5
Tozalanmagan paxta yog'i, tonna	1 195,2	7 372,7	3 754,5
Tozalangan paxta yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)	3 107,0	5 700,0	2 011,7
Paxtadan yigirilgan tikuv iplari, tonna	18 505,4	19 316,2	17 052,7
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan boshqa trikotaj polotnolar, tonna	443,2	2 515,7	2 985,5

*2024-2025-yillarning yanvar-may oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
Sanoat ishlab chiqarish hajmlar (yillik)


**Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy
faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori ulushga ega faoliyat turi to'qimachilik, kiyim ishlab chiqarish, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi – 44,2 % (2025-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,0 %) ni, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 24,3 % (2025-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,3 %)ni, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi esa – 4,8 % (2025-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 117,6 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,1 % ni (2024-yilning yanvar-may oylarida 1,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 8,7 % (7,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 15,3 % (16,1 %), quyi texnologiyali 74,9 % (75,0 %)ni tashkil etgan.

Namangan viloyatida yirik korxonalar tomonidan



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab
chiqarish hajmi**

2025-yilning yanvar-may oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 93,1 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 82,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-may*	2024-yil yanvar- may *	2025-yil yanvar- may
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	2717,4	2 581,3	2 442,0
Issiqlik energiyasi- ming. Gkal.	28,6	59,3	48,9

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv; suvni tozalash va suv ta'minoti xizmatlarida 1,8 % ga ko'payish, oqava suvlarning shلامي 27,8 % ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, Xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlarida 3,3 % ga kamayganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar- may *	2024-yil yanvar- may *	2025-yil yanvar- may
Tabiiy suv; suvni tozalash va suv ta'minoti xizmatlari- mlrd so'm	40,4	56,8	57,8
Oqava suvlarning shلامي – mlrd so'm	3,8	3,9	5,0
Xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlari- mlrd so'm	7,8	25,0	25,8

*2023-2024-yillarning yanvar-may oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 6 380,7 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 47,3 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-may oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 47,2 % ni tashkil etgan.



VI. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Namangan viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.



Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

N. Abduraxmonova
69 227-84-80 (5010)

Manzil:
